

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2024)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2024

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiqnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 5/1-son (may 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

- (9). Showalter E. The Double Standard and the Feminine Novel. In a Literature of their own: British Women novelists from Bronte to Lessing. Princeton University Press, 1977, 370 p.
- (10). Ukichi T. The gendering and re-rendering of medieval Japan. USA. Japan women's journal. 1995, 290 p.
- (11). Women in France. In Essays of George Eliot. Ed by Thomas Penney. New York, 1963, 210 p.

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna (Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi;
m.y.umurova@buxdu.uz)

XALQ QO'SHIQLARI VA ULARNING TASNIFI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq qo'shiqlari mazmuniga qarab lirik, tarixiy, diniy, bayram, g'amgin, qayg'uli, hajviy, bolalar, tabiat tasvirlovchi, bayram, marosim, kasb-hunarga oid qo'shiqlar kabi guruhlarga tasniflangan hamda bu tasnif misollar orqali izohlangan va qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. O'zbek xalq qo'shiqlari mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, ijrosi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, folklor, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar, diniy qo'shiqlar (na'ltlar), quvnoq va bayram qo'shiqlari, g'amgin yoki qayg'uli qo'shiqlar, marsiyalar, hajviy qo'shiqlar, bolalar qo'shiqlari, tabiatni tasvirlovchi qo'shiqlar, bayram va marosimlar qo'shiqlari, kasb-hunarga oid qo'shiqlar.

НАРОДНЫЕ ПЕСНИ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. В статье в зависимости от содержания узбекские народные песни классифицируются на такие группы, как лирические, исторические, религиозные, праздничные, грустные, печальные, шуточные, детские, природообразные, праздничные, обрядовые, профессиональные песни, а также данная классификация поясняется на примерах и анализируются специфические особенности песен. Изучены содержание, особенности, исполнение, роль и значение узбекских народных песен в воспитании зрелого поколения.

Ключевые слова: народные песни, фольклор, лирические песни, исторические песни, религиозные песни (нааты), веселые и праздничные песни, грустные песни, панихиды, шуточные песни, детские песни, песни о природе, праздничные и обрядовые песни, профессиональные песни.

FOLK SONGS AND THEIR CLASSIFICATION

Annotation. In the article, depending on the content, Uzbek folk songs are classified into groups such as lyrical, historical, religious, festive, sad, sorrowful, comic, children's, nature-like, festive, ritual, professional songs and this classification is explained with examples and the specific features of the songs are analyzed. The content, features, performance, role and significance of Uzbek folk songs in the education of the mature generation have been studied.

Key words: folk songs, folklore, lyrical songs, historical songs, religious songs (naat), funny and festive songs, sad or mournful, songs, funeral services, comic songs, children's songs, songs about nature, holiday and ritual songs, professional songs.

Kirish. Mamlakatimizda madaniyat, xususan, musiqa san'atini rivojlantirishga, milliy madaniyatimiz, o'zbek xalq qo'shiqlari, ijrochilik an'analarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev san'at va madaniyat, adabiyotga shunday ta'rif beradi: «Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi» [1]. Shuni inobatga olib, aytish mumkinki, xalqimiz tomondan yaratilgan qo'shiqlarni tahlil qilish, ijro xususiyatlarini bilish, o'zbek xalqining muayyan hudud musiqa san'atining kam o'rganilgan muammolarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari O.Safarov, T.Mirzayev, M.Alaviya, M.Jo'rayev, M.O'rinov, T.Rajabov ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek xalq qo'shiqlarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Masalan, O.Safarovning "To'y muborak yor-yor" asarida o'zbek nikoh to'ylarining marosim va rusumlariga oid qo'shiqlar to'plangan va tartiblangan. M.Alaviyaning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" monografiyasida marosim qo'shiqlarining qadimiyligi, janr va badiiy xususiyatlari; B.Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" yirik ilmiy ishida qadimiy urf-odatlar, e'tiqodiy tasavvurlar, so'zning sehrli qudrati; M. Jo'rayevning "O'zbek mavsumiy marosim folklori", "Navro'z bayrami" kabi kitoblarida marosim folklorining shakllanish jarayoni, xalq taqvimining genezisi, dehqon va chorva mavsumining o'ziga xos xususiyatlari, Navro'z bayrami masalalarining ayrim vohalarga xos jihatlari ham yoritilgan. H.Ismoilovning "O'zbek to'ylari", M.Sattorning "O'zbek udumlari", Q.Nasriddinovning "O'zbek dafn va ta'ziya marosimlari", T.

Jovliyevning “An’analar – hayot sabog’i” kabi kitoblarida o‘zbek xalqining udum va marosimlari o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy, musiqiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish, musiqa folklori durdonalarini o‘rganish musiqashunoslikning dolzarb masalalaridan bo‘lib, xususan, musiqa san’atini rivojlantirishga, milliy madaniyatimiz, vohalarga xos marosim qo‘shiqlari, ijrochilik an’analarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotchilar qo‘shiqlarni ikkita katta guruhga ajratgan: Biri xalq orasida qadim zamonlardan to hozirgi kungacha xalq qo‘shiqchilari tomonidan kuylangan qo‘shiqlar, ikkinchisi kitobiy qo‘shiqlar (masnaviy, ruboiy, g‘azal, qit’a va h.k.) bo‘lib, bugungi kungacha professional xonandalar tomonidan aytiladi. Jahon mamlakatlari folklorshunosligida qo‘shiqning janr sifatida o‘rganilishi haqida ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Har bir mamlakat tadqiqotchilari o‘zlarining to‘plagan materiallari asosida xalq qo‘shiqlari haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Agar rus folklorshunoslari Rossiyaning turli mintaqalaridan to‘plagan materiallar asosida bahslashsa, biz O‘rta Osiyo xalqlaridan to‘plagan folklor materiallarini yaratishga oid nazariy ishlardan foydalangan holda so‘z yuritimiz.

Xalq qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, xalq orasida she‘r, ashula, tarona, badeha, g‘azal, naqsh va naqshxonlik, ruboiy, muxammas, bayt va boshqa nomlari bilan ma’lum va mashhurdir.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari mazmunida mamlakatimizning qadimiy tarixi, etnografiyasi, madaniyati, xalq ijodiyoti, turmush tarzi, tarixiy madaniyati, mehnat mashg‘ulotlari, marosimlari, urf-odat va bayramlarining o‘ziga xosligi ifodalangan.

Tadqiqotchilar xalq qo‘shiqlarining kelib chiqishini juda qadimgi davrlarga, jumladan, “Avesto” muqaddas kitobining “Gotlar” matniga bog‘laydilar. Xalq qo‘shiqlari, asosan, kuy orqali ijro etiladi. Ular ruboiy, qo‘shiq, g‘azal, muxammas, masnaviy, qit’a kabi adabiy janrlar asosida yaratilgan. Xalq qo‘shiqlarining asosiy vazifasi inson tuyg‘ularini, ijtimoiy munosabatlarni, o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini ifodalashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, qo‘shiqlar inson hayotining sevgilirik, satirik, tanqidiy, motam, musofirchilik va boshqa jabhalarini qamrab oladi. Qo‘shiqlarning asosiy mazmuni jamiyat dardiga yaqin bo‘lgani uchun ham xalq orasida mashhur bo‘lib, xalq tilida doimo yangraydi. Tadqiqotchilar xalq qo‘shiqlarini mazmuniga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratganlar: lirik qo‘shiqlar, tarixiy qo‘shiqlar, diniy qo‘shiqlar (na‘tlar), quvnoq va bayram qo‘shiqlari, g‘amgin yoki qayg‘uli qo‘shiqlar, marsiyalar, hajviy qo‘shiqlar, bolalar qo‘shiqlari, tabiatni tasvirlovchi qo‘shiqlar, bayram va marosimlar qo‘shiqlari, kasb-hunarga oid qo‘shiqlar.

Tahlil va natijalar. Lirik qo‘shiqlar, asosan, ishqiy mavzularini qamrab olgan bo‘lib, ularda sof ishq timsoli, oshiqlar hayotining turli lahzalari tasviri va shu kabilar go‘zal badiiy san’atlar orqali she‘riyatga olib kelinadi. Lirik qo‘shiqlar ba’zan xalq qo‘shiqchilari tomonidan quvnoq paytlarda bazm qo‘shiqlari bilan birga sho‘x kuylar bilan kuylanadi.

Xalq qo‘shiqlarining yana bir guruhi tarixiy qo‘shiqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularda turli tarixiy voqealar, mashhur shaxslar o‘z aksini topgan «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg‘urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma», “Alp Er To‘nga marsiyasi” «Namoz», «Mardikorlar», «Botirxon zulmi», «Kelman Koroskonning suvi» va boshqalar.

Quvnoq qo‘shiqlar, asosan, sho‘x va raqsga tushadigan ohangda ijro etiladi. Bunday qo‘shiqlarda asosiy e’tibor bayramlar, ayniqsa, to‘y va sunnat to‘ylariga qaratilgan. O‘z navbatida, bazm qo‘shiqlarining katta guruhi tadqiqotchilar tomonidan to‘y marosimi qo‘shiqlari deb nomlangan. Kelin-kuyov va ularning turli tantanali lahzalari sharafiga to‘y-tantanali qo‘shiqlar kuylanadi. Jumladan, “Yor-yor”, “O‘lan”, “Kelin salom”, “Jar-jar”, “Salomnoma” “To‘y muborak”, To‘y marosimining ochilishi va mehmonlarni kutib olishda ijro etiladigan “Nikoh to‘y” ziyofat qo‘shiqlari “To‘y muborak”, “Xush keldingiz”, “Al muborak”, “To‘y boshlovi”, kelin-kuyovni kutib olishda ijro etiladigan “Kelin-kuyov qutlovi” qo‘shiqlari. Kelinni kuyovning qarindoshlariga tanishtirish va kelinning yuzini ochishda ijro etiladigan “Kelin salom”, “Chor salom” qo‘shiqlari.

To‘y-marosim qo‘shiqlarining mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holdagi janr xilma-xildir. Ma’lum hududlarda o‘ziga xos qo‘shiq janrlarining qo‘llanishi va tarqalishi: Farg‘ona vodiysida erkaklarning ulug‘vor yurish marosim qo‘shiqlari “Naqsh” va “Shomuborak”, Buxoroga xos “Mavrigi”, Samarqandda “qarsak”. va shu kabilar tarixiy jihatdan qadimiy bo‘lishiga qaramay, har bir sahnada ijro etiladi.

To‘y-marosim qo‘shiqlari ma’lum tur va janrlarga bo‘linadi, jumladan, farzand tug‘ilishi va tarbiyasi, o‘smirlik va balog‘at bilan bog‘liq bo‘lgan “Beshik to‘y”, “Soch olar to‘y”, “Sunnat to‘y”, “Muchal to‘y”, “Nikoh to‘y”lar. Mana shu marosimlar bilan bog‘liq holda yaratilib, ijro etiladigan qo‘shiqlar “To‘y-

marosim qo‘shiq-lari” deyiladi. Ular o‘z mavzu va funksiyalari bo‘yicha ma’lum janrlardan iborat: to‘y-marosim qo‘shiq-lariga “Hay, yorey, hay do‘st”, “O‘lan”, “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Paxtaro gir”, “Yaquy-yaq”, “Um-ufu”, “Layla-lo”, “Aylansin yor”, “Yor-yorone”, “Muchal qo‘shig‘i” va boshqalar kiradi.

Xalq qo‘shiq-larining yana bir qismida g‘amgin va qayg‘uli mazmun mavjud. Bunday qo‘shiq-larda so‘zlovchilar ayriliq, xiyonat, hijrat azobi, begonalashish, g‘ariblik, musofirlik, majburan turmush qurish kabilardan shikoyat qiladilar. Qolaversa, odamlar vafot etganda qayg‘u bilan aytiladigan g‘amgin qo‘shiq-lar – marsiya mavjud. O‘zbek xalqi orasida ma’lum bir shakl va qolipda kuylangan marsiyalar ko‘p. Masalan: “Vo To‘ram”, “Vo gulim”, “Yig‘ilar”, “Yo‘qlovlar” “Marsiyalar” va shunga o‘xshash, hozirgacha xalq qo‘llaydi. Bu marosimlarning ham alohida ijrochilari – yig‘ichi, go‘yandalari bo‘lib, ular vafot etgan kishining yaxshi sifatlarini qo‘shgan holda motamdorlarning o‘rtasiga tushib ichki kechinmalarini ifodalaydi. Aza-motam aytim-qo‘shiq-lari badiiy yuksak, tili sodda, iboralari o‘tkir, kuylari mungli va ko‘pchilikni yig‘lata oladigan, badihago‘ylik va erkin uslubda, fojiviy va dramatik ta’sirli bo‘ladi. Bundan tashqari, hazil va kinoyani o‘z ichiga olgan bir qancha qo‘shiq-lar mavjud. Sho‘x musiqalar ostida kulgili qo‘shiq-lar ijro etilib, tinglovchini kuldirib, xursand qiladi. Hajviy qo‘shiq-lar ijrosi davomida xonandalar qo‘shiq mazmunida ifodalangan turli harakatlar bilan tomoshabinlar e’tiborini tortadi. Bunday qo‘shiq-larni, asosan, masxarabozlar ijro etadilar. “Ushurbacha mond dar balandā”, “Yalali bobo”, “Bale murg‘ak” va shunga o‘xshash mashhur hajviy qo‘shiq-lar hozir ham mavjud. Bundan tashqari, satirik qo‘shiq-lar orqali zulm, adolatsizlik, jamiyatdagi kamchiliklar, mansabdor shaxslarga nisbatan adolatsiz munosabat ham tanqid qilinadi.

O‘zbek xalqi orasida boshqa qo‘shiq-lar qatorida diniy qo‘shiq-lar ham mavjud. Bu turdagi qo‘shiq-larda Alloh taoloning sifat-lari, payg‘ambarlarning xatti-harakatlari va turli diniy voqea va qissalar ulug‘lanadi. Ushbu turdagi qo‘shiq-lar odamlar orasida nashrah, mushkulkusho, na’txonlik, mavludxonlik kabi nomlar bilan ham nomlangan.

Bolalar qo‘shiq-lari shakl va mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, o‘qish holatlari ko‘p. Masalan, alla qo‘shig‘i, erkalatuvchi va tavsiflovchi qo‘shiq-lar, yil fasllari va atrof-muhit haqidagi qo‘shiq-lar, bolalar o‘yinlariga oid qo‘shiq-lar va boshqalar.

Xulosa. O‘zbek xalq qo‘shiq-larining asrlar davomida og‘zaki an’analar asosida davrga, avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib, sayqal topib borishi va hozirgi kundagi rivoji, xalqimiz turmush tarzida, uning marosimlari va bayramlari o‘tkazilishida muhim o‘rin tutishi, xalqimizning yashash sharoiti, tarixiy voqea-hodisalar, tabiatni asrash muhim izn qoldirgan. O‘zbek xalq qo‘shiq-lari mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, ijrosi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-qonuni.
- (2). Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққийёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 229 – 230-бетлар.
- (3). Жураев Б.Т., Абдурахмонова Д.У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора. Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств, 2019, №.14, с. 77.
- (4). Жураев Б.Т. Социально-духовное развитие студентов. Россия–Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития, 2019, с. 22 – 23.
- (5). Umurova M.Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, T., 2795, №. 546X, p. 55.
- (6). Yoshiyevna U.M. Musiqa ta’limida bolalar folklor qo‘shiq-larini o‘rgatish pedagogik muammo sifatida. Technical science research in Uzbekistan, 2023, т. 1, №.4, p. 156 – 162.

**Xodjaeva Dilafro‘z Izatilloevna (PhD Buxoro davlat universiteti; d.i.xodjaeva@buxdu.uz),
Bozorova Khurshida Botirovna (BDU 2-bosqich magistranti; Khurshida_sunny@yahoo.com)
JEYN OSTIN ASARLARIDA NIKOH VA ITOATKOR BO‘LISHDA JAMIYAT TA’SIRI**

Annotatsiya. *Jeyn Osten asarlarida, ayniqsa, 19-asrda nikoh va itoatkorlik, ko‘pincha, ijtimoiy ta’sirni aks ettiradi. Osten asarlarida ayollarning ijtimoiy rollari va ularning cheklangan avtonomiyalari, ayniqsa, nikoh qarorlarida ta’kidlanadi. U nikohning turli jihatlarini, jumladan, ijtimoiy mavqe, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy umidlarni tasvirlaydi. Ostening qahramonlari nikohni moliyaviy xavfsizlik, ijtimoiy me’yorlar va shaxsiy istaklar asosida boshqarib, nikoh rishtalarining murakkab dinamikasini tasvirlaydi. Satira va xarakterdagi o‘zaro ta’sirlar orqali Osten iqtisodiy yoki ijtimoiy manfaatlar uchun turmush qu-*

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA

Sobirov Muzaffar Azatovich	Intellectual elektr quvvat tizimi mafkurasi va konseptual modellarini ishlab chiqish	3
Ismoilova Zamira Tuxtayevna	Uch qatlamli silindrik jismning erkin va majburiy tebranishlari	8
Esanov Nuriddin Qurbonovich, Xalilov Shaxobiddin Fayziyevich, Saipnazarov Jonibek Muxammadiyevich, Rahmonova Go'zal Xolmamatovna	Elastik muhitda joylashgan suyuqlikli silindrik qobiqning xos tebranishlari	13
Axmedov Qurbonbay Yuldashboyevich	m – plurisubgarmonik funksiyalarning ba'zi xossalari	19
Марданов Арслан Пардаевич	Lakunar darajali qatorlarning mavjudlik sohalari haqida	23

FALSAFA

Usmonov Shoxrux Shokir o'g'li	Yangi O'zbekistonda madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy muhitning o'rni	28
Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich	Milliy manfaatlar va milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish ehtiyoji	31

TILSHUNOSLIK

Karimova Madina Saydulla qizi	Arxitektura sohasida yangi so'zlarning shakllanishida ekstralingvistik va intralingvistik omillar ta'siri	34
Zohidova Sevara A'zamjon qizi	Fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik tadqiqi	36
Shodikulova Aziza Zikiryaevna	Substitutsiya metonimik kogeziyani shakllantiruvchi vosita sifatida	38
Kabilova Zebiniso Muratovna	Tovush va ma'no uyg'unligi	41

ADABIYOTSHUNOSLIK

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna, Adamova Farangizbonu Jamol qizi, Lucia Boldrini	The Gadfly romanida Arthur Burton obrazi tahlili	44
Muxammedova Xulkar	Viktorian ingliz adabiyotida feminizm va gender diskursi	46
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna	Xalq qo'shiqlari va ularning tasnifi	50
Xodjaeva Dilafro'z Izatilloevna, Bozorova Khurshida Botirovna	Jeyn Ostin asarlarida nikoh va itoatkor bo'lishda jamiyat ta'siri	52
Adambayeva Nargiza Kadambayevna	"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyosiy metodologiya asoslari	55

PEDAGOGIKA

Kodirov Ismoil Norkobilovich	Texnika oliy ta'lim muassasalarida malakali muhandis kadrlar tayyorlashda dual ta'limning afzalliklari	58
Abdullayeva Gulmira Abdullayevna	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy matnni o'qib tushunish hamda tahlil etishni singdirish metodologiyasi	62
Ubaydullayeva Gulnora Oltinbek qizi	Inkluziv ta'limning O'zbekiston ta'lim tizimidagi istiqbollari	67
Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna	Yoshlarning axborot iste'moli madaniyatini oshirishda mediasavodxonlikning o'rni	69
Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich	Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda g'oyaviy omillardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim jihatlari	73
Abdiev Berdax Turg'anbayevich	Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda didaktik manbalarning ahamiyati	75
Abdirahmonov Lazizbek Latipboyevich	Jismoniy madaniyat talabalarining pedagogik amaliyot jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishning tashkiliy asoslari	78